



## YOSH O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHNING YANGI USLUBLARI VA AHAMIYATI

Saliyeva Aynura Rustemovna

Samarqand Davlat Chet tillari XTA yo'nalish 2 -kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Nigora Azzamova

**Annotatsiya:** Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rgatish biroz qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada bu muammolarni qulay metodologik uslublarda bartaraf etish hamda o'quvchilarning ham tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish haqida so'z boradi. Shuningdek, til o'rgatish jarayonini samarali tashkil etish uchun kuchli o'quv strategiyalari va materiallardan foydalanish, o'quvchilar yoshi hamda aqliy salohiyatiga muvofiq yangi til o'rgatish darsliklarini yaratish haqida mulohaza yuritimiz.

**Kalit so'zlar :** ingliz tili ikkinchi til sifatida , yangicha o'quv strategiyalari , tilni o'zlashtirish, innovatsiyalar, yosh o'quvchilar bilan dars jarayonini to'g'ri tashkil etish, nutqiy hamda kommunikativ kompetensiyalar, tilga yangicha yondashuv.

Hammaga ma'lumki bugungi kunda O'zbekistanda , nafaqat O'zbekiston va balki butun jahonda ingliz tilini bilish, bu tilni o'rganish sezilarli darajada ancha kuchaygan va kuchayib bormoqda. Bizning davlatimizda ham hamma boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi yosh tilga qiziquvchilar bilan shug'ullanish bo'yicha bir qator muammolar yo'q emas. Bu to'g'risida shuni ta'kidlash kerakki, avvalo, bolalarda tilga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh maktab o'quvchilari uchun bolalikdan chet tillarini asta- sekinlik bilan singdirib borish bu ularning kelajaklarini oldindan hozirlash demakdir, albatta. Yuqorida aytilganidek, ingliz tilini boshlang'ich sinf o'quvchilariga ikkinchi til sifatida o'rgatib borishda bir qancha Davlat Ta'lim Standartlar ( DTS ) ga oid yangi metodika hamda darsliklarda foydalanish juda muhim hisoblanadi. Shu bilan birgalikda maktablarda ta'lim beruvchilar ham o'zlarining pedagogik qobiliyatlari tajriba hamda ko'nikmalaridan kelib chiqib dars jarayonini samarali tashkil etish bolalarning bilim salohiyatlarini yanada kuchaytiradi o'qishga bo'lgan qiziqishlarini ham yanada rivojlantiradi.

Bu jarayonda har bir ta'lim sistemasining o'qitish - ta'lim berish borasida bir nechta o'ziga xos bo'lgan yangicha o'quv strategiyalari mavjud . Shu bilan birga chet tili darslarining samarali bo'lishini ta'minlashda yangicha innovatsion texnika texnologiya va zamonaviy kommunikativ eshittirish qurilmalaridan ham foydalanish anchagina ahamiyatli sanaladi. " Innovatsiya " so'zi ingliz tilidan olingan olinma so'z bo'lib - yangilik kiritish yangilik o'zgartirish demakdir. Innovatsion texnikalar esa o'quv jarayonini ancha yaxshilaydi va o'qituvchi bilan o'rganuvchi o'rtasidagi faoliyatga qo'shimcha o'zgartirishlar, yangiliklar kiritishi bilan xarakterlanadi. Interaktiv metodikalar kelsak, bu ma'lum masalada guruh bo'lib mulohaza yuritish, fikrlash



demakdir. Ya'niki, pedagogik ta'sir etish uslublari hisoblanib, ta'lim jarayoni mazmunining muhim bir jihati sanaladi. Ilg'or texnologiyalar, interaktiv metodikalar va zamonaviy innovatsion g'oyalar yosh o'quvchilarning yuqori darajada bilimli va malakali bo'lishini ta'minlaydi.

Albatta, yuqoridagi yangi texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim olish yosh o'quvchilar uchun biroz qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin, ammo o'qituvchi muntazm ravishda bola bilan uning ota-onasi yordamida shug'ullanib ish ko'rsa bu kabi muammolar yuzaga kelmaydi. Bu o'rinda shuni aytish kerakki, yosh o'quvchilarni faqat "kompyuterlarga bog'lash" emas, aksincha hamma narsadan me'yorda foydalanishni o'rgatish, ularning ko'proq vaqtini kitobxonlik bilan o'tkazish va chet tillarini o'rganish jarayonida milliylikni yo'qotmagan holda chet tilni rivojlantirib borish kerakligini uqtirib borish juda ahamiyatlidir. Dars jarayonlarida yoki sinfdan tashqari o'qish vaqtlarida milliy multfilm hamda ibratli qisqa bolalar yoshiga mo'ljallangan multfilmlar ko'rish yoki hikoya va ertaklar tarjimalari bilan shug'ullanish juda samarali hamda foydali tomonlardan hisoblanadi.

Yuqorida aytilgani singari til o'rganish jarayonida o'quvchi mukammal o'rgana olishi uchun tilning kommunikativ - ya'ni muloqot shaklini birinchi o'rinda bilishi o'ta muhim jarayon sanaladi. Hammaga ma'lumki, ingliz tilida ham 4 ta LANGUAGE SKILLS ya'ni til mahoratlari mavjud:

- Listening - tinglash va tushunish. Buni yosh o'rganuvchilarga ko'proq multfilmlar qo'yib berish, ingliz tilida she'r, qo'shiq aytish orqali shakllantirish muhi.
- Reading - o'qish. Bu malaka bolalar uchun qiyin bo'lishi mumkin, ammo turli xil plakat yoki afishalardan suratli kitoblardan foydalangan holda rivojlantirish mumkin.
- Writing - yozish asosiy qismlardan biri sanaladi. Sabab har bir o'rganuvchi dastlab tilning alifbosi bilan tanishib chiqadi.
- Speaking - gapirish ham tilning asosiy bo'g'inini tashkil qiladi. Chunki, til o'rganuvchi dastlab boshqalar bilan kommunikativ - muloqotda bo'ladi. Bu jarayonda ham o'qituvchidan ham ota-onadan katta ko'mak va e'tibor lozim.

Ma'lumki ayni bir chet tilini o'rgatish jarayonida yangicha metodlar hamda qarashlar mavjud. Quyida shulardan bir nechtasi keltirilgan.

I FAST GROUP WORK - FGW - Ushbu metod yangicha bo'lib, unda 3 yo 4 kishidan iborat o'quvchilar o'zlariga berilgan mavzuga tayyorlanib darsni tez hamda samarali va yangi oy'inlar yordamida tashkil etishlari lozim. Bunda ularga 1 soat muddat berilib, dars jarayonini tashkil etish o'zlariga yuklatiladi. Bu mustaqil ish Bavarian bilan barobar desa ham bo'ladi, ammo faqat guruh bilan kelishilgan holda.

II SHORT SUMMARY - Bu metod Reading - ya'ni o'qib tushunish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga bu gapirishni rivojlantirish uchun ham foydali. Sabab o'qituvchi bir hikoyani ingliz tilida o'z o'quvchisiga aytadi. Boshqa bolalar eshitmaydi. Keyin eshitgan bola o'z do'stiga 5 SENTENCE - 5 ta gap orqali hikoyani tushuntirib berishi lozim.



Xulosa qilib aytganda, bolalarga ingliz tilini o'rgatishda jzda ham ko'plab metodlarni qo'llash mumkin. Bu jarayonda bolalarning mayl , xohish hamda qiziqishlariga ko'ra tajriba , iste'dodlariga ko'ra ish ko'rish esa juda muhim hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALARI:

1. Ziyayeva M (2018) O'zbekistonda yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishdagi muammolar va imkoniyatlar. Til va Tilshunoslik jurnali.
2. Abiyirova Ozoda .Xolbo'tayeva Umida. Bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodlari
3. Madina Ahmedova. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish metodikasi. Conference on Universal Science Research 2023.
4. <https://www.pedagoglar.uz>